BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA GLOBAL KOPETENSIYALARNI SHAKILLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI

Bo‘riboyeva ManzuraxonMurodjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan biri — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida global kompetensiyalarni shakllantirish. Boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiyaning kognitiv va psixologik omillarini aniqlanib, o‘quvchilarning dunyoqarashini tizimli rivojlantirish, PISA (Global Competence) xalqaro baholash dasturi mezonlari asosida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot va global muammolarni tahlil qilish innovatsion pedagogik model va uning ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari bayon qilingan .*

Kalit so‘zlar: *global kompetensiya, integrativ yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, PISA, pedagogik model, fanlararo bog‘lanish, kreativ fikrlash.*

Abstract:*This article addresses one of the most pressing issues of modern education—the formation of global competencies in primary school students. The cognitive and psychological factors of interdisciplinary integration in primary education are identified, and a systematic approach to developing students’ worldviews is substantiated. Based on the criteria of the PISA (Global Competence) international assessment framework, the article presents an innovative pedagogical model and methods for developing students’ skills in critical thinking, intercultural communication, and the analysis of global issues.*

Keywords: *Global competence, integrative approach, primary education, PISA, pedagogical model, interdisciplinary integration, creative thinking.*

Аннотация: *В статье рассматривается одна из актуальных проблем современного образования — формирование глобальных компетенций у учащихся начальных классов. Выявлены когнитивные и психологические факторы междисциплинарной интеграции в начальном образовании, обосновано системное развитие мировоззрения учащихся. На основе критериев международной оценочной программы PISA (Global Competence) представлены инновационная педагогическая модель и методы развития у обучающихся навыков критического мышления, межкультурной коммуникации и анализа глобальных проблем.*

Ключевые слова: *глобальная компетенция, интегративный подход, начальное образование, PISA, педагогическая модель, междисциплинарная интеграция, креативное мышление.*

XXI asr axborot va texnologiyalar asri ta’lim tizimi oldiga nafaqat fundamental bilimlarni berish, balki o‘quvchining global dunyoda moslashuvchanligini ta’minlovchi kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Globalizatsiya sharoitida ta’limning maqsadi sub’ektning murakkab global ekotizimda o‘zini anglash va harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. J.Dyui, L.Vigotskiy va J.Piajening konstruktivizm

nazariyasi global kompetensiyalarni shakllantirishning fundamenti hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchi axborotni shunchaki qabul qilmaydi, balki o‘z tajribasi va ijtimoiy muloqoti orqali yangi mazmun yaratadi. Global kompetensiya — bu shaxsning global va mahalliy muammolarni tahlil qilish, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni namoyon qilish qobiliyati hisoblanadi.Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi zamonaviy ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Jamiyat taraqqiyoti sharoitida shaxs nafaqat fan asoslarini bilishi, balki global muammolarni anglay olishi, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishi va ijtimoiy mas’uliyatni his etishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, global kompetensiyalarni shakllantirish bugungi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori bo‘lib, aynan ushbu davrda o‘quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllana boshlaydi. Shuning uchun global kompetensiyalarni kechiktirilgan bosqichlarda emas, balki boshlang‘ich sinflardan boshlab rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) talablariga ko‘ra, global kompetensiya quyidagi to‘rtta o‘lchovni o‘z ichiga oladi:

Ekzogen tahlil: Global va mahalliy ahamiyatga ega masalalarni tadqiq qilish.

Aksiologik yondashuv: Turli madaniyatlarning qadriyatlarini tushunish va hurmat qilish.

Muloqot strategiyasi: Madaniyatlararo ochiq va samarali muloqotga kirishish.

Praksis: Umumiy farovonlik va barqaror taraqqiyot uchun mas’uliyat bilan harakat qilish.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA Global Competence Framework mazkur masalani ilmiy jihatdan asoslab beruvchi muhim hujjat hisoblanadi.Global kompetensiya tushunchasi zamonaviy pedagogika va ta’lim tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida global kompetensiyalar o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Bu jarayonda murakkab nazariy tushunchalar emas, balki real hayotiy vaziyatlar (masalan, suvni tejash, chiqindilarni saralash), matnlar, vizual materiallar(savol-javoblar) va o‘yin faoliyati yashab turgan hudud (mahalla, qishloq) misolida tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan yondashuv – aynan shu ehtiyojlarga javob beradigan, didaktik va metodik jihatdan serqirra vositadir. U orqali o‘quvchilarda bilimlar sun’iy bo‘laklarga ajralmagan, balki hayotda bir-biriga bog‘liq hodisalar majmui sifatida shakllanadi. Masalan, atrof-muhitni o‘rganishda biologiya, geografiya va ona tili fanlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llansa, nafaqat nazariy bilim, balki ekologik tafakkur, madaniy yondashuv va kommunikativ ko‘nikmalar ham shakllanadi. Bu holat o‘quvchilar ongida bilimlar integratsiyasi bilan birga, hayotiy kompetensiyalarning ham tabiiy shakllanishiga olib keladi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

An’anaviy darslarda bilimlar ko‘proq abstrakt va mavhum berilgan bo‘lsa, integratsiyalashgan darslarda o‘quvchi bilimni real holatlar bilan bog‘lab, o‘z hayotiy

tajribasi orqali idrok etadi. Bu esa uning tafakkur jarayonlarini faollashtirib, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy muloqotda ishtirok etish, shaxsiy fikrini asoslash kabi hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Ta’limda psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda "Gologrаfik integratsiya" nazariyasini qo‘llash tavsiya etiladi. Taklif etilayotgan model quyidagi komponentlardan tashkil topgan:Kognitiv komponent (Bilish): Dunyoning yaxlit manzarasi haqidagi tasavvurlar. Fanlararo bog‘lanish (Tabiiy fanlar + Matematika + Ona tili) orqali global muammolar haqida tushuncha berish.Affektiv komponent (Hissiy): Empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantirish. O‘quvchida "Global fuqarolik" etikasini shakllantirish.Konativ komponent (Harakat): Kichik ijtimoiy loyihalar va jamoaviy ishlar orqali mas’uliyatni his qilish. Xalqaro pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda global kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni:

fanlararo integratsiya asosida tuzilgan o‘quv dasturlari;

real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar;

o‘quvchilarning fikrini erkin ifoda etishga yo‘naltirilgan interfaol metodlar;

madaniyatlararo mavzularga oid matnlar va vizual materiallardan foydalanish.

Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarda global dunyoqarashni shakllantirish bilan birga, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.Xalqaro tajribada o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash va global muammolar yuzasidan mustaqil fikrlashini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlil va amaliy kuzatuvlar natijasida ishlab chiqilgan integrativ pedagogik model quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Maqsadli komponent — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida global kompetensiyalarni shakllantirish va ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish.

Mazmuniy komponent — fanlararo integratsiya asosida global va mahalliy muammolarni yorituvchi mavzular, madaniyatlararo matnlar va ijtimoiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar.

Faoliyat komponenti — interfaol metodlar, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar va reflektiv mashg‘ulotlar.

Natijaviy komponent — o‘quvchilarda global fikrlash, madaniyatlararo muloqot, hamkorlik va ijtimoiy mas’uliyat kompetensiyalarining shakllanishi.

Mazkur model boshlang‘ich ta’lim jarayonida tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bugungi global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar inson hayotining barcha sohalarida moslashuvchanlik, kreativ fikrlash va samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini zaruratga aylantirmoqda. Shunday sharoitda maktab, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda nafaqat bilim berish, balki ularni hayotiy faoliyatga tayyorlash, kundalik turmushda zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bilan ham shug‘ullanishi lozim. Bu esa ta’lim mazmuniga yangicha qarashni, uni o‘quvchining hayotiy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Xulosa

Yuqoridagi ilmiy tahlil va amaliy kuzatuvlarga tayangan holda aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi ta’lim jarayonining eng dolzarb vazifalaridan biridir.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida global kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan integrativ pedagogik model tizimli va bosqichma-bosqich global kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Modeldan foydalanish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, global dunyoqarashi va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada integratsiyalashgan yondashuv samarali didaktik vosita bo‘lib, o‘quvchilarda bilimlarning hayot bilan uyg‘unlashuvi, funksional savodxonlik, kommunikativlik, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi zaruriy ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan ta’lim darslari orqali o‘quvchilar nafaqat bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda qo‘llash, muammolarni hal qilish, o‘z fikrini asoslab berish va jamoada ishlash kabi hayotiy faoliyatga doir kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Bu esa boshlang‘ich ta’limning chinakam shaxsga yo‘naltirilganligi va kompetensiyaviy mazmun bilan boyitilganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1.OECD. (2018). PISA 2018 Global Competence Framework. Paris: OECD Publishing.

2.UNESCO. (2015). Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO.

3.Jo‘rayeva G‘. Pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning zamonaviy metodlari. – Toshkent: “Ijod”, 2019. – 180 b.

4.Toshxojayev T. Boshlang‘ich ta’lim metodikasida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. – 216 b.

5.Turg‘unboyeva S.R. Ta’lim sifatini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati. – Toshkent: Fan, 2017. – 124 b.

6.Vaxabova M. Boshlang‘ich ta’limda fanlararo aloqalar asosida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish. // O‘zPI ilmiy axboroti. – 2022. – №2(34). – B. 45–50.

7.Xoliqova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘qituvchining rolini oshirish. // Ta’lim va amaliyot jurnali. – 2023. – №1. – B. 32–37